

ADABIYOTDA ZUHD MAQOMI VA ZOHIDLICKNING O'RNI VA AHAMIYATI HAQIDA

Aziza Omanboyeva

“Ma’mun universiteti”

o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasavvuf tarixidagi davrlashtirish; zuhd hamda zohidlik masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Zohidlikning ilk boshlanmasi va o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida atroflicha fikrlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: zuhd, zohidlik, maqom, tariqat, uzlat, ilm.

Tasavvuf bir ta’limot sifatida o‘z tarixiga ega. Uning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o‘zining tadrijida katta ikki bosqichni bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Abdulkarim Kushayriyning sharhlashicha, mutasavviflar zuhhod va ubboldar (zohidlar va obidlar)dan so‘ng maydonga chiqqan toifalardir¹. Bundan tasavvuf ta’limotida tariqatlarning shakllanishida zuhd davri muhim ahamiyatga ega degan xulosaga haqli ravmishda kelish mumkin. Zero, tasavvufdagi har bir maqomning tamali zuhddir. Mazkur tamalsiz boshqa maqomlarga yuksalish mushkuldir. Katta va asosiy bir davrni egallagan zuhd haqida tasavvufiy-irfoniy manbalarda atroflicha to‘xtalingan. Tasavvufga oid lug‘atlarda zuhd atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Zuhd – dunyo, uning hoyu-havaslari, shuhratiga; nafs va uning orzulariga qarshi alohida qiymatli bir munosabat; bu insonning turli ruhiy va jismoniy zohidlik va kurashlar bilan o‘z ruhini tarbiyalashidir”². “Zuhd arabcha *z h d* fe’lining masdar bo‘lib, lug‘atda biror narsaga moyil bo‘lmaslik, talab qilmaslik, yuz o‘girish, befarqlik va undan voz kechish ma’nolarini bildiradi”³. Shuningdek, “Zuhd tasavvufiy atama sifatida oxiratga yuzlanish uchun dunyodan chekinish yoki Allohga yuzlanish uchun dunyoni ham, oxiratni ham tark etish ma’nosida qo‘llaniladi”⁴. Sulaymon Boqirg‘oniy bir hikmatida Haq yo‘lchisi –solikning vazifalaridan bahs etarkan shunday ta’kidlaydi:

*Quloviz og‘i birla muridini
Ilik farmon qilur o‘z virdini,
Xilvat, uzlat, zuhd, taqvo borlarini,*

¹ Иброҳим Ҳаққул, Навоийга қайтиш, –Т.: Тафаккур, 2016, 99-6

² Prof. Dr. Ebū'l-Ala Afifi TASAVVUF: İslâm'da Manevi Devrim. İstanbul, 2000. s.76

³ Kadir Özköse Zühd ve sūfîlerin zühde yükledikleri anlam. Tasavvufta Dünyevileşmeye Tepkisel Yaklaşım

⁴ Ethem Cebecioglu, Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü, Ankara, 1997, s. 787;
Süleyman Uludağ, Tasavvuf Terimleri Sözlüğü, İstanbul, 2001, s. 389

Irodatqa kirmaguncha olsa bo 'lmas.

Demak, zohid tariqat ahlidandir. Zuhd rahbar – komil murshid tarbiya qanotida yo‘lga chiqqan muridning tarbiyasida muhim bosqich sanaladi. Zikr, xilvat, uzlat kabi zuhd ham irodatqa kirgan muridlar bajaradigan amal ekanini alohida ta’kidlash joiz. Ta’limotning ilk bosqichi shariat ahkomlarining eng yuqori darajasi o‘laroq diniy ilmlarni chin sidq ila ado etishni maqsad qilib qo‘ydi.

Dastlab “zuhd” atamasiga to‘xtalinsa, lug‘atlarda arab tilidan tarjima qilinganda bee’tiborlik, dunyo moliga ahamiyat bermaslik degan ma’nolarga ega. Doktor Tezi va Ahmat Atlining “Tasavvufda Rijo-ul g‘ayb” asarida zuhdga shunday ta’rif beriladi: “Qo‘lda bo‘lмаган narsaning qalbda ham yo‘qligi, dunyoni tark etmoq, mol-u dunyo kimning qo‘liga o‘tsa ham uni qalbdan o‘tirmaslik, nafsnı tiya bilgan holda dunyodan yuz o‘girish, olami borliqni zavol ko‘zi bilan ko‘rish, insonni Allohning zikridan g‘ofil etgan narsalardan yuz burmoq, dunyoni kichik sanamoq va har qanday orzu-havasini ko‘ngildan silkib chiqarmoq, Allohdan boshqa har narsa va har kimdan zohid bo‘lmoqdir. “Zuhd nima edi?”- degan savolga to‘xtalinsa, zuhd Allohning davatlariga bo‘yinsunmoq va payg‘ambarimiz s.a.v kabi yashamoq edi, deyish eng maqbolidir:

Dunyo suymoq xatolarni boshi teyu,

Ul Mustafo bizni ogoh qilmadimu?

Aning uchun “al-faqr faxriy” teyu,

Ug‘ondin darveshlikni qo ‘lmadimu?

Bu borada Mustafa Kara “Tasavvuf va tariqatlar tarixi” kitobida ham ushbu fikrlarni quvvatlab shunday yozadi: “ Zuhd tamalda Qur’oni Karim va Payg‘ambarimizning ruhiy-ma’naviy hayotiga tayanadi”¹. U zotga munosib izdoshlik qilish, “al-faqr faxriy” shiori bilan yashagan va uni hayot tarziga aylantirgan payg‘ambarning ummati bo‘lish yo‘lida o‘z nafsi bilan kurashishdir. Uhud jangidan qaytayotib “...kichik jihoddan qaytayotibmiz, oldimizda katta jihod kutmoqda” deganda o‘z sahabalariga ana o‘sha nafs bilan kechadigan jangni va uning “katta jihod” ekanligidan ogoh etgandi. Bu haqida turkiy tasavvuf she’riyatining asoschichsi Ahmad Yassaviy shunday deydi:

Zohidlarga zuhdu amal, taqvo kerak,

Riyozatda oshiqlarg‘a fatvo kerak,

Ul tariqa er bo ‘lg ‘ong ‘a da ‘vo kerak,

Saharlarda qo ‘pub, toat qilg ‘um kelur.

Nafs dunyoni maqtab, qalb unga moyil bo‘lib, odam dunyoviylikni istasa, zuhd nafsga kurash bilan dunyodan yuz o‘giradi. O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin namunalaridan hisoblanmish “Qutadg‘u bilig” asarida ham zuhd haqida so‘z boradi.

¹ Mustafa Kara Tasavvuf ve Tarikatlar Tarihi, İst. 1985.

Asar nafaqat adabiyot balki, tarix, falsafa, din, tasavvuf tarixini o‘rganishda ham nihoyatda bebaho manba hisoblaniladi. “Qutadg‘u bilig” asarining ushbu ishimiz uchun ham qimmatli bo‘lgan jihat shundaki, unda zohid obrazining keng tasvir bilan ifoda qilinishidadir. Turkiy adabiyotdagi birinchi bor zuhd maqomi va zohid obrazi haqida ma’lumot beruvchi asar sifatida ham qadrlidir. Asardagi zohid obrazini – O‘zg‘urmush tamsil etadi. Tasavvuf adabiyotining ilk bosqichi zuhd davri (IX-XI asrlar) hisoblanar ekan, ushbu davrlarga nisbatan yaqin yaratilgan Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul- haqoyiq” asarlari haqida ham so‘z borishi tabiiydir.

Asar voqealariga diqqat qaratilsa, O‘zg‘urmishning zohidona hayot tarzini tanlaganligini uning qarindoshi O‘gdulmish elig (hukmdorga) bayon etadi. Va hukmdor ham o‘z navbatida uni ko‘rishga xohish bildirib bir qancha maktublar bitib O‘zg‘urmishni saroya chaqiradi. Ushbu o‘rinda zohidlik va zohidona hayot haqidagi yozuvchining qarashlari ham bayon qilinadi. Elig tilidan:

Toat-ibodatni nihoniylar qilish kerak, uni xalqdan yashirish kerak

Toat-ibodat talay bo‘lsa ham uni oz deb hisoblash kerak.

Zohid – O‘zg‘urmish asardagi asosiy obrazlardan biri, dostonda nafs tarbiyasidagi solik ruhiyatini tamsil etuvchi shaxs... Albatta, zuhdiy hayot Alloh in’om etgan sabr, qanoat, rizoga asoslanadi va sekin-asta nafs tazkiyasiga yo‘l ochadi. O‘zg‘urmish qanoat va malomat timsolidir. Dostonda zohidlik mohiyati O‘zg‘urmish tilidan shunday izohlanadi:

Menga nom bergenlar, bu zohid nomi,

Toat-ibodatning menga in’omi.

Meni nafs, havasdan tiyar bu ot, boq,

Otim-chun havaslar mendan uzoqroq¹.

Zohid insonni dunyoning foniyligi va boqiy hayotga tayyorgarlikdan ogoh etadi. “Qutadg‘u bilig” asarida esa zohidlikni ixtiyor etgan O‘zg‘urmush zohidning shunday savobli va Alloh buyurgan ishlardan chetda qolishidan Elig va O‘gdulmush tomonidan ko‘p bora ogohlantiriladi.

Elig:

Ikki turli kishi – kishi ataladi,

Biri – o ‘rganuchi, ikkinchisi – o ‘rganuvchi.

O‘rgatuvchi yoki o‘rganuvchi inson bu zamin-u hayotda tirik bo‘lgan kishidir, undan tashqarisi esa yilqi kabidir. Shu sababdan ham Kuntug‘di O‘zg‘urmushni ilmsiz ibodatdan to‘sishga harakat qiladi va yana aytadi:

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 418.

*Agar shu vaqtga qadar bilmagan bo 'lsang, bilim o 'rgan.
So 'ng toat-ibodatga qo 'l tekkizgin.*

Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda ham ilm olishga da'vat etuvchi oyatlar juda ko'p. "(Ey Muhammad) ayting: "Parvardigorum, ilmimni yanada ziyoda qil!"¹ Yoki, "Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi ?!"². "Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja - martabalarga ko'tarur."³ Imom G'azzoliy ushbu oyat mazmuni yuzasidan Ibn Abbos (r.a)dan iqtibos keltiradi. Ibn Abbos (r.a) aytadilar: "Olimlarning darajasi ilm olmagan mo'minlarning darajasidan yetti yuz daraja yuqoridir. Har darajaning orasi besh yuz yillik yo'lga teng"⁴.

Demak, ko'rishimiz mumkinki, o'zbek adabiyotida zuhd davri va zohidlik martabasi haqida ko'p bora so'z boradi. Turli asarlar, shoirlar baytlarini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Va bugungi kun mumtoz adabiyot ixlosmandlari va tadqiqotchilarining oldidagi muhim muammolaridan biri ham zuhd davri o'ziga xosliklarini to'g'ri anglamasdan turib, zohidlarga nisbatan muqallid deya fikrlash tarzini o'zgartirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Qur'oni Karim. (izoh va tarjimalar.) A. Mansur,
2. Иброҳим Ҳаққул, Навоийга қайтиш, –Т.: Тафаккур, 2016,
3. Prof. Dr. Ebu'I-Ala Afifi TASAVVUF: İslam'da Manevi Devrim. İstanbul, 2000.
4. Kadir Özköse Zühd ve sūfîlerin zühde yükledikleri anlam. Tasavvufsta Dünyevileşmeye Tepkisel Yaklaşım
5. Ethem Cebecioğlu, Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü, Ankara, 1997,
6. Süleyman Uludağ, Tasavvuf Terimleri Sözlüğü, İstanbul, 2001,
7. Mustafa Kara Tasavvuf ve Tarikatlar Tarihi, İst. 1985.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 418.
9. G'azzolliy. Ihoyi ulumiddin-din,

¹ Qur'oni Karim Toha surasining 114 - oyatida

² Zumar surasining 9-oyatida:

³ Mujadala surasining 11-oyatida

Ankabut surasi. 43

Niso surasi. 83

A'rof surasi. 52

7. G'azzolliy. Ihoyi ulumiddin-din, 52-b